

PIRAKANTA (*PYRACANTHA COCCINEA* ROEM.) KO'CHATLARINI JADAL YETISHTIRISH VA UNING PLANTATSIYASINI BARPO QILISH

Xalilova Kamola Abdulxodi qizi

Toshkent davlat agrar universiteti, O'zbekiston

E-mail: kamola.khalilova@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17422156>

Annotatsiya

Ushbu tezisdagi O'zbekiston sharoitida *Pyracantha coccinea* Roem. turining ko'chatlarini jadal yetishtirish va uning plantatsiyasini barpo qilish texnologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Ishda pirakantaning biokimyoviy xususiyatlari, o'sish sur'atlari, ekish sxemalari, parvarish tadbirlari hamda iqtisodiy samaradorlik tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, 3×3 metrli ekish sxemasi optimal natijani beradi, mineral o'g'itlarning kompleks qo'llanilishi esa o'sish ko'rsatkichlarini 15–20 % ga oshiradi.

Kalit so'zlar: *Pyracantha coccinea*, plantatsiya, agrotexnika, o'sish sur'ati, iqtisodiy samaradorlik, ko'chat yetishtirish.

Kirish

Bugungi kunda ekologik barqarorlikni ta'minlash, urbanizatsiya jarayonida yashil hududlarni kengaytirish va tuproq eroziyasining oldini olish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, mahalliy iqlim sharoitiga mos, chidamli va estetik jihatdan qimmatli buta turlarini o'rganish hamda ularni ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy yo'nalish hisoblanadi. Pirakanta (*Pyracantha coccinea* Roem.) – nafaqat dekorativ, balki ekologik jihatdan foydali o'simlik bo'lib, u tuproqni mustahkamlash, eroziyani kamaytirish va bioxilma-xillikni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi - O'zbekiston sharoitida pirakanta ko'chatlarini jadal usulda yetishtirish, ularning o'sish dinamikasini o'rganish va plantatsiyalarini iqtisodiy jihatdan samarali tarzda barpo etish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat. Asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Pirakanta urug'larining unuvchanligini oshirish usullarini aniqlash;
2. Ko'chatlarni idishli usulda yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish;
3. Turli ekish sxemalarining o'sishga ta'sirini baholash;
4. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot materiali va usullari

Tajriba ishlari Toshkent viloyatining Bostanliq tumanidagi o'rmon xo'jaligi bazasida 2020–2023 yillarda olib borilgan. Tajriba variantlari quyidagicha tashkil etilgan:

- 1-variant – odatdagi tuproq (nazorat);
- 2-variant – tuproq + qum + chirigan organik o'g'it;
- 3-variant – kokos torfi;
- 4-variant – qarag'ay barglari chirindisi;
- 5-variant – biohumus.

Baholash Shepotyev (1973) metodikasi va Dospexov (2011) statistik usullari asosida o'tkazilgan.

Natijalar va tahlil

O'tkazilgan kuzatuvlar natijasida pirakanta ko'chatlarining unuvchanligi va o'sish sur'atlari agroteknik sharoitga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Eng yuqori o'sish sur'ati kokos torfi va biohumus variantlarida qayd etilgan (1,8–2,3 barobar nazoratdan yuqori). Plantatsiyalarni barpo etishda 3×3 metrli ekish sxemasi eng maqbul deb topildi. Bu variantda o'simliklarning o'rtacha yillik o'sishi 66,7 sm, ildiz diametri 9,4 mm ni tashkil etdi. Bundan tashqari, NPK + ME kompleks o'g'itlari o'sish jarayonlarini faollashtirgan, barglar soni va fotosintez intensivligini oshirgan. Iqtisodiy tahlil natijalariga ko'ra, 1 gektar plantatsiya uchun sarf 18 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, sof foyda 25 mln so'mgacha yetgan, rentabellik darajasi 38–42 % atrofida bo'lgan.

Xulosa

1. *Pyracantha coccinea* o'simligi O'zbekiston sharoitida iqlimga yaxshi moslashadi, qurg'oqchilikka va sovuqqa nisbatan chidamli.
2. 3×3 metrli ekish sxemasi optimal natija beradi, o'simliklarning o'sish sur'ati yuqori bo'ladi.
3. Kompleks mineral o'g'itlar (NPK+ME) o'sish ko'rsatkichlarini 15–20 % ga oshiradi.
4. Plantatsiya tashkil etish iqtisodiy jihatdan samarali bo'lib, foyda 25 mln so'mgacha yetadi.
5. Ishlab chiqilgan texnologiya o'rmon xo'jaliklari, manzarali bog'dorchilik va ekologik landshaftlarni tashkil etishda tavsiya etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jumayev J.M., Kholmurodov M.Z., Khalilova K.A. Phenology and growth indicators of honey trees and bushes in Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 244. – C. 02050.
2. Halilova K.A. pirakanta butasini vegetativ ko'paytirishda qalamcha uzunligining o'sish ko'rsatkichlariga ta'siri //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 11. – C. 67-71.
3. Жураев Ж. М., Холмуротов М. З., Халилова К. А. Раъногулдошлар оиласига мансуб дарахт ва бута турларини асалариларнинг бах, органи ривожланишидаги аҳдмияти." Узбекистон аграр фани хабарномаси" журнали. – 2021.
4. Бердиев Э.Т., Холмуротов М. Интродукция декоративных кустарников в условиях Узбекистана // Агроэкология, 2018.